

GENDER TENGLIGINING XALQARO VA MILLIY QONUNCHILIK ASOSLARI

Xudoyqulova Mehriqul Shonazar qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-pochta: mehrigulxudoyqulova022007@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola gender tengligi masalasini inson huquqlarining fundamental qismi sifatida yoritib beradi. Gender tengligi milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar bilan qo'llab-quvvatlangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni asosida amalga oshirilmoqda. Maqolada O'zbekistonda so'nggi besh yilda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar, huquqiy asoslar va siyosiy chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, gender tengligi ta'lim, siyosat, iqtisodiyot va jamiyatdagi o'rni ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: gender tengligi, ayollar daftari, diskriminatsiya, gender audit, PI, tenglik, genderga asoslangan zo'ravonlik

Hozirgi rivojlangan davrda inson huquqlarini amalga oshirish, himoya qilish barcha toifa shaxslari uchun muhim va dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda. Ularning orasida esa inson huquqlari va ayollar huquqlarini ajratish, ularni alohida ko'rinishda ko'rishni talab qilayotganlar ham yo'q emas. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: Inson huquqlari va ayollar huquqlarini ajratish qanchalik adolatli, qanchalik manfaatli va shu o'rinda qanchalik zararli tomonlari bor? Keling, endi ushbu g'oyalarning kelib chiqish tarixiga bir nazar tashlaymiz. Dastlab, qadimgi yunon olimlari Suqrot, Arastu, Aflotun kabi olimlari eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polislarni (shaharlarni) nazarda tutishgan. Eng yaxshi qonunlar sifatida ham barchaning tengligini kafolatlagan qonunlarni

tan olishgan. Erkak va ayollar tengligi g'oyasini yunon olimi Antifont o'z asarlarida qo'llagan holda shunday fikrlarni ilgari suradi: «Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi». Sharq qomusiy olimlaridan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan bo'lsa, 1791-yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasida ilk bor ayollarning erkin fikrlash va o'z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan. Gender tengligining huquqiy rivojiga e'tibor beradigan bo'lsak, eng avvalo, gender tenglikning huquqiy asoslari xalqaro va milliy qonunchilikni tarixiy-nazariy va huquqiy jihatlarini tahlil etish lozim. Albatta, barchamizga ma'lumki, 1948-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida erkak va ayollarning tengligi alohida e'tirof etilgan bo'lib, Deklaratsiyaning 1-moddasida «Hamma odamlar o'z qadriyatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak», deya ta'rif berilgan. Shuningdek, BMT tomonidan 1966-yilda qabul qilingan yana bir xalqaro hujjat – Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 3-moddasida ta'kidlanishicha, «Mazkur paktida ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu Paktida ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta'minlash majburiyatini oladi». Aynan mazkur xalqaro norma O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" qonunining 2-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun

hujjatlaridan iboratdir, - degan moddaning amaliy va huquqiy asosidir. Demak, yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mustaqil davlatimiz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan talablaridan kelib chiqib o'z milliy qonunchiligida ayollar va erkaklar tengligi masalasiga jiddiy ahamiyat berishining sababi ham asoslidir.

Ayollar huquqlari – inson huquqlari tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, u ijtimoiy, siyosiy, jismoniy va boshqa sabablarga ko'ra barcha insonlar uchun umumiy bo'lgan huquq va erkinliklarni amalga oshirishda boshqalar bilan teng imkoniyatga ega bo'la olmaydigan va shu boisdan davlat tomonidan ham, xalqaro hamjamiyat tomonidan ham qo'llab-quvvatlanishga muhtoj shaxslar toifasi huquqlarini qamrab oladi. Shu bois BMT tomonidan "Ayollarga nisbatan diskriminatsiyani bartaraf etish to'g'risida"gi deklaratsiyasi (1967-y.) hamda "Ayollarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllarini bartaraf etish haqida"gi konvensiya (1979-y.) qabul qilingan. Aynan ikkinchi hujjatda ayollarning kollektiv va individual huquqlari himoyasi masalasiga kuchliroq urg'u berilgan. Umuman olganda, o'tgan asrning 70-yillari dunyo miqyosida ayollar teng huquqliligi masalalarida uyg'onish, jadallashuv sezilgan davr bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, 1975- yilning BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Xalqaro ayollar yili" deb atalishi, 1976-1985-yillar oralig'idagi davrning esa "Tenglik, taraqqiyot, tinchlik" shiori ostida BMT Ayollar o'n Yilligi e'lon qilinishi fikrimiz isbotidir. 1979-yilgi BMT Konvensiyasi esa erkak va ayollarning huquqiy asosga bo'lgan huquq va imkoniyatlarini tenglashtirish vazifasini ko'ndalang qo'ygan, mazkur masalaga bag'ishlangan printsipial ahamiyatli ilk xalqaro hujjat bo'ldi.

Xususan, 1979-yilgi “Ayollarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 1-moddasiga muvofiq: “ayollarga nisbatan diskriminatsiya tushunchasi - jins belgilari asosida, xotin-qizlarning, oilaviy ahvolidan qat’i nazar, ayol va erkak tengligiga tayanib, insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik va boshqa sohalardagi huquqlari va asosiy erkinliklaridan foydalanishiga to‘sqinlik qilish, ularni tan olmaslikka qaratilgan har qanday cheklov yoki taqiqni bildiradi”. Ushbu ta’rifni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan bog‘laydigan bo‘lsak, Konstitutsiyamizning 58-moddasiga muvofiq xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli hisoblanishi nazarda tutilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining 25-moddasiga ko‘ra: Uy mehnati jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas, u ayollar va erkaklar tomonidan teng darajada amalga oshiriladi”. Ushbu normani yanada yaxshiroq tushunish uchun aynan shu qonunning 3-moddasiga qarashimizning o‘zi kifoya. Ayni shu moddada ko‘rsatilgan normaga muvofiq: jins bo‘yicha bevosita kamsitish - jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning huquqlari hamda erkinliklarini tan olmaslikka qaratilgan har qanday tarzda farqlash, istisno etish yoki cheklash, shu jumladan oilaviy holati, homiladorligi, oilaviy majburiyatlari tufayli kamsitish, shuningdek shahvoniy shilqimlik qilish, teng mehnat va malaka uchun har xil haq to‘lash”. Shuningdek, Jahon banki guruhining katta vitse-prezidenti va bosh iqtisodchisi Karmen Reynxart - “Ayollar uyda teng bo‘lmagan sharoitda ish joyida tenglikka erisha olmaydilar. Bu o‘yin maydonini tenglashtirish va farzand ko‘rish ayollarning iqtisodiyotda to‘liq ishtirok etishi va o‘z umidlari va ambitsiyalarini ro‘yobga chiqarishdan chetda qolishini anglatmasligini

ta'minlaydi."- degan fikrlarni ilgari suradi. Ayni paytda Konvensiyaning 4-moddasida a'zo-davlatlar tomonidan onalikni himoyalash, shuningdek, ayollar va erkaklarning faktik tengligini o'rnatishni jadallashtirishga yo'naltirilgan maxsus muvaqqat choralar diskriminatsiya sanalmasligi ta'kidlanadi.

Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda esa, gender tengligi masalasida hali ham ba'zi bir muammolar bo'lishiga qaramasdan xalqaro maydonda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tomonidan ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Misol sifatida, 2021-yilda O'zbekistonda 2030-yilgacha gender tengligiga erishishga qaratilgan yangi strategiya qabul qilindi. Strategiya 2021-2022-yillarga mo'ljallangan harakatlar rejasini, shuningdek, saylov huquqlari, davlat xizmati, ta'lim, fan va sport kabi turli sohalarda gender tengligiga erishishning asosiy tamoyillarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, strategiya ijtimoiy-iqtisodiy sohada xotin-qizlar va erkaklar uchun ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish, kredit olish kabilarda teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash hamda tazyiq va zo'rvonlikni oldini olishga qaratilgan. Qolaversa, ushbu strategiya oilaviy munosabatlar, bola parvarishi, huquqiy hujjatlar va gender statistikasidagi gender bilan bog'liq muammolarni yechishni nazarda tutadi. Strategiyaning samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun tegishli manfaatdor tomonlar va fuqarolik jamiyati tashkilotlaridan iborat Gender komissiyasi mazkur strategiya monitoringini olib borishi ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, 2021-2022- yillarning o'zidayoq O'zbekistonda ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan 40 dan ortiq islohot va dasturlar qabul qilindi. Masalan, qonunda (2022 yil dekabr-809-son) "gender auditi" qoidasi joriy etilgan. Genderga oid audit tushunchasi - davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida, shu jumladan kadrlar siyosatini olib borishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda

imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi holatini, shuningdek genderga doir kompleks yondashuvni o'rganish va baholash hisoblanadi. Xotin-qizlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashning institutsional asoslari yanada mustahkamlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, Oliy Majlis Senatida alohida qo'mita, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi yangidan tashkil etildi va faoliyati yo'lga qo'yildi.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, bandligini ta'minlash, daromadlarini ko'paytirish, tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, "ayollar daftari" bilan manzilli ishlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish, oila asoslarini yanada mustahkamlash kabi masalalarni hal etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar, dasturlar va tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan samarali jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar natijalari va erishilgan marralar xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, Parlamentlararo Ittifoq, Jahon banki tomonidan alohida e'tirof etilmoqda. Ayollar, biznes va qonun indeksida O'zbekiston 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senat qariyb 25 foizini xotin-qizlar tashkil etgani holda, parlamentdagi xotin-

qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlamentlar o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi. "Siyosatdagi ayollar" jahon reytingida 45-o'rinni egalladi.

Xalqaro maydonda O'zbekistonda erishilgan marralarni e'tirof etgan holda, sohaning konstitutsiyaviy-huquqiy asosini yanada mustahkamlash hozirgi davr, zamonamizning talabi ekanligini alohida ta'kidladi. Xususan, xotin-qizlar va erkaklarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanishda teng huquqliligini ta'minlash, tashkilot yoki korxona tomonidan jinslar o'rtasidagi kamsitishning barcha shaklini bartaraf etish, xotin-qizlarni har qanday zo'ravonlikdan himoya qilish va ularning oila hamda mehnat vazifalari o'rtasida muvozanatni saqlashda muammoli holatlar hanuz uchrab turgani ko'rsatib o'tildi. Bu esa xotin-qizlarning konstitutsiyaviy huquqlarini yanada mustahkamlashni taqozo etadi.

Parlamentlararo ittifoq prezidenti Duarte Pacheko 2022-yil 8-9-sentyabrda O'zbekistonda 17 ayol spiker, 120 dan ortiq ayol deputat ishtirok etgan Jahon parlamentlari ayol rahbarlari sammitida qabul qilingan "Barqarorlik va farovonlikni oshirish maqsadida xatarlarning oldini olish: Parlament yetakchiligi" nomli Toshkent deklaratsiyasining gender tenglikka erishish yo'lida muhim hujjat ekaniga alohida e'tibor qaratdi. Parlamentlararo ittifoq Bosh kotibi Martin Chungong O'zbekistonda gender tenglik va genderga nisbatan sezgir institutlar, jumladan, "gender masalalarga sezgir parlament" yaratilgani, ular barcha xotin-qizlarning erkaklar bilan bir xil va teng huquq, erkinliklardan to'liq foydalanishi, har qanday xatardan xoli, munosib hayot kechirishi, umuman, mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda harakatlantiruvchi kuchga aylanib borayotganiga urg'u berdi.

Ayollar va bolalarni zoʻravonlikdan himoya qiluvchi milliy qonunlar orasida ayollar va bolalarni zoʻravonlikdan himoya qilishni kuchaytiruvchi soʻnggi oʻzgartirishlar (2023); Inson savdosiga qarshi kurashish toʻgʻrisidagi Qonun (2008), Bolaning huquqlarini kafolatlash toʻgʻrisidagi Qonun (2007) va Jinoyat kodeksi (1995) mavjud boʻlib, bu kodeksda zoʻrlash (118-moddasi), inson savdosi (134-moddasi) va ayollarni nikohga majburlash (137-moddasi) jinoyat sifatida belgilangan. 1995-yilda Oʻzbekiston Ayollarga qarshi barcha shakldagi diskriminatsiyani bartaraf etish toʻgʻrisidagi Konventsiyani imzoladi. Oʻzbekiston 2019-yilda ayollarga qarshi zoʻravonlikning ayrim shakllarini qamrab olgan, “Ayollarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonun deb nomlangan qonunni qabul qildi. 2023-yil aprelda Prezident oiladagi zoʻravonligini jinoyat deb tan olish, jinsiy xarakterdagi jinoyatlarga nisbatan jazolarni oshirish, iqtisodiy va psixologik zoʻravonlik hamda jinsiy tajovuzni maʼmuriy huquqbuzarlik sifatida tan olish; shuningdek, genderga asoslangan zoʻravonlikdan jabr koʻrganlariga nisbatan himoya buyruqlarini bir yilgacha uzaytirishni koʻzda tutuvchi qoʻshimcha oʻzgartirishlarni imzoladi. Bu tuzatishlarning naqadar muhim ekanligini quyidagicha ifodalashimiz mumkin, chunki hozirgacha mahalliy huquq-tartibot organlari oilaviy zoʻravonlikni jinoyat sifatida deyarli javobgarlikka tortmagan va tortmayapdi.

Sovet hukumati davridan boshlab, Oʻzbekiston xotin-qizlari 1938-yilda saylash va saylanish huquqiga ega boʻldilar, shuningdek, Konstitutsiya ayollarning hokimiyatning barcha tarmoqlarida har qanday lavozimni egallash huquqlarini kafolatlaydi. Ayollar siyosatda, jumladan, senat raisi, qonunchilik palatasi spikeri va bosh vazir oʻrinbosari kabi muhim rollarga ega boʻldi. 2004-yilda Oʻzbekistonda milliy va hududiy darajalarda nomzod kvotalarini joriy etildi,

shuningdek saylov qonunchiligi har bir siyosiy partiya tomonidan Oliy Majlisga, shuningdek, viloyat, tuman va shahar deputatlari kengashlariga nomzod qilib ko'rsatilganlarning kamida 30 foizi ayollar bo'lishi kerakligini belgilaydi. Bu kabi kvotalar doimiy ravishda kuchli jamoatchilik qo'llab-quvvatlashidan bahramand bo'ldi. Biroq, kvotalarga rioya qilmaslik uchun qonuniy jazo choralari yo'q va hukumatning ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud tarmoqlaridagi ayollar vakilligi umuman past darajada qolmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo'lsak, xotin-qizlar huquqlari uchun milliy va xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan xatti-harakatlardan qat'iy nazar, maishiy zo'ravonlik, tajovuzlar, ish haqlaridagi nomutanosiblik, mehnat huquqlarining kamsitilishi kabi muammolar hamon dolzarbligicha qolmoqda. Shunga qaramay gender tengligi inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lib, u milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlab qo'yilgan muhim prinsip sifatida tan olingan va keng ommaga tatbiq etib kelinmoqda. Ushbu fikrlar to'g'risida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antonio Gutterish gender tengligi mavzusidagi nutqlaridan birida shunday fikrlarni ilgari suradi: "Ayollar jamiyat hayotida yetakchi rollarni egallasa, ijroiya va qonun chiqaruvchi organlar ham ko'proq mas'uliyatli bo'ladilar". Gender tengligini ta'minlash orqali jamiyatda adolat va barqarorlik mustahkamlanadi, ayollarning imkoniyatlari kengayadi va ularning jamiyatdagi o'rni yanada mustahkamlanadi. Shu bois, gender tengligi masalalari doimiy e'tibor va har tomonlama qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan soha bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir)
<https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m8193>.
3. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m8958>.
4.
<https://documents1.worldbank.org/curated/en/099052824010040771/pdf/P17>
5. <https://www.uzembassy.uk/news/632>.